

MILLIY EKSPORTNING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10429436>

Sodikov Zokir Rustamovich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat

turizmi kafedrası dotsenti, i.f.n.

Annotatsiya

jahonda eksport va tashqi savdoning rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinib, uning o'ziga xos jihatlari asoslangan. Globallashuv sharoitida eksportni rivojlantirishga ta'sir etuvchi salbiy omillar va ularni bartaraf qilish yo'llari ko'rsatilgan. Shuningdek, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari va natijalari bayon qilingan.

OPPORTUNITIES AND PROBLEMS OF NATIONAL EXPORT DEVELOPMENT

Abstract

the development of export and foreign trade in the world and the factors affecting it are analyzed, and its specific aspects are based. In the conditions of globalization, negative factors affecting export development and ways to eliminate them are shown. Also, the opportunities and results of diversification of the export composition are described.

ВОЗМОЖНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ЭКСПОРТА

Аннотация

анализируется развитие экспорта и внешней торговли в мире и факторы, влияющие на него, а также обосновываются его специфические аспекты. В условиях глобализации показаны негативные факторы, влияющие на развитие экспорта, и пути их устранения. Также описаны возможности и результаты диверсификации структуры экспорта.

Kalit so'zlar

milliy xo'jalik, savdo, jahon bozori, xalqaro savdo, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish, eksport, import, tashqi savdo, xalqaro bozor.

Key words

trade, world market, international trade, national economy, economic growth, international division of labor, production, export, import, foreign trade, international market.

Ключевые слова

торговля, мировой рынок, международная торговля, национальная экономика, экономический рост, международное разделение труда, производство, экспорт, импорт, внешняя торговля, международный рынок.

Global iqtisodiy tizimda milliy xo'jaliklar o'rtasida savdo jahon bozoridagi aloqalarning dastlabki ko'rinishi va hozirgi kunda ham asosiy ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Zero, xalqaro savdo milliy iqtisodiyot rivojlanishiga, resurslar bazasini kengaytirishga va ichki bozor cheklanganligiga barham berishga, takror ishlab chiqarish jarayonlarini jadallashtirishga va unumdorlikni oshirishga, iqtisodiy o'sish sur'atlarini yuksaltirishga, xomashyo va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga, milliy xo'jalikning ixtisoslashuviga va xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etishining chuqurlashuviga to'g'ridan - to'g'ri ta'sir ko'rsatadi hamda mislsiz ijobiy muvaffaqiyatlarga zamin hozirlaydi.

O'z navbatida butunjahonda xalqaro savdo buyuk geografik kashfiyotlar, yangi dengiz yo'llarining ochilishi, mashinalashgan ishlab chiqarishning rivojlanishi, yangi tarmoq va sohalarning vujudga kelishi, mehnat unumdorligining oshishi va tashqi savdoning jadallashuvi, ko'pchilik mamlakatlarda xomashyo resurslariga talabning kengayishi hisobigi muttasil ravishda rivojlanib kelmoqda. Bu borada mutaxassislar eksportni rag'batlantirish siyosati orqali xom-ashyoni eksport qiluvchilardan tayyor mahsulotlarni eksport qiluvchiga aylanish va jahon xo'jalik tizimida o'zining munosib o'rnini egallash muhimligini qayd qilgan.

Bugungi kunda jahondagi tendensiya tashqi savdo jarayonini va harakatlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladigan xalqaro bozorni ehtiyoj sifatida keltirib chiqargan. Shu bois, xalqaro bozor - bu xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv asosida shakllangan va iqtisodiy munosabatlar orqali o'zaro bir-biriga integratsiyalashib borayotgan alohida mamlakatlar milliy bozorlari majmuasidan tashkil topmoqda. Mazkur bozor o'z tarkibiga tovar va xizmatlar savdosini, investitsiya va sarmoyalar oqimini, valyuta - kredit va moliyaviy munosabatlarni, texnologiyalar transfertini va ilmiy-texnika hamkorlik jarayonlarini, ishchi kuchining xalqaro migratsiyasini va boshqa shu singari munosabatlar tizimini

kiritish mumkin. Ayni paytda, ushbu tizimning kengayish tendensiyasi sifatida xalqaro iqtisodiy integratsiya tuzilmalari, erkin iqtisodiy zonalar, transmilliy kompaniyalar va ko'plab tashkil etilayotgan qo'shma korxonalar milliy xo'jaliklarni xalqaro bozor atrofida birlashtiradi.

Fan-texnika taraqqiyoti va innovatsiyalar ta'sirida globallashtirish jarayoni muttasil chuqurlashib borayot bugungi sharoitda mamlakatimizning jahon bozorida o'ziga xos nufuzini ta'minlashda xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvi imkoniyatlaridan samarali foydalanish, eksportga yo'naltirilgan milliy ishlab chiqarish tizimini barpo etish va unda chuqur qayta ishlangan sanoat mahsulotlarini tayyorlash orqali tashqi bozorga taklifini muntazam ravishda mustahkamlab borish o'ta muhim ahamiyat kasb etadigan vazifalardan hisoblanadi. Shu bois, milliy iqtisodiyotda bozor munosabatlarini chuqurlashtirish sharoitida mamlakatning jahon xo'jaligi aloqalarida va xalqaro mehnat taqsimotida keng miqyosda faol ishtirok etishi zamonaviy ochiq turdagi milliy iqtisodiyotni barpo etishning ustuvor asosi hisoblanadi. Bunda bozor iqtisodiyoti – liberal tamoyillarga asoslangan tizim ekanligi, u ochiq tusda bo'lib, yopiqlik va boshqa mamlakatlardan yakkalanish unga yot bo'lgan haqiqatga asoslanib faoliyat olib boradi. Shuning uchun hozirgi kunda global ijtimoiy-iqtisodiy tizimdagi taraqqiyot va yuksalish har qanday milliy iqtisodiyotning istiqbolli eksportini, uning jahon bozoriga chuqurroq kirib borishiga va mustahkam mavqeni egallashiga tayanishini tasdiqlaydi.

O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda bugungi kunda uning jahon xo'jaligi bilan aloqalarini rivojlanib borayotganligi, eksport salohiyati kengayayotganligi va shu maqsadlar ko'zda tutilib belgilanayotgan aniq tadbirlar asos bo'lmoqda. Respublikada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish har qanday milliy bozor uchun 21 asrda rivojlanish strategiyasining eng ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Chunki, milliy iqtisodiyotda ochiqlik darajasining kengayishi ishlab chiqarish samaradorligining ortishiga va erkin raqobatning kuchayishiga, xususiy sektorni rivojlanishiga va ichki imkoniyatlardan unumli foydalanishga zamin yaratish hisobiga eksport salohiyatini mustahkamlashga olib keladi.

Milliy iqtisodiyotlar uchun eksport salohiyatini oshirish barqaror valyuta tushumlarini ta'minlashga va jahon bozorida munosib o'rin egallashga olib keladi. Shuning uchun O'zbekistonda eksport salohiyatini oshirish hamda uning tarkibini diversifikatsiya qilishda ichki ijtimoiy- iqtisodiy imkoniyatlardan va nisbiy afzallikka ega bo'lgan sohalarga oid mahsulotlardan unumli foydalanish dolzarb hisoblanadi. Ayni paytda aholi daromadlarining ahamiyatli darajada ortib borishi

milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda rivojlanishi bilan birga tashqi savdo va eksport faoliyatining samarasini ham talab etadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy jihatdan o'zgartirish va eksportning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish orqali tashqi bozorlarga chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar nomenklaturasining kengaytirish samarani oshirishga olib keladi. Chunki xorijiy mamlakatlarga sotilayotgan mahsulotlar tarkibida alohida tovarlar yoki xizmatlar turlarining, xususan, tabiiy resurs va xomashyolar salmog'ining ortib ketishi, agar jahon bozorida bu mahsulotlarning narxi pasayib ketsa yoki ularga tashqi talab kamayadigan bo'lsa, mazkur vaziyatlarda eksportchi mamlakatlar og'ir va tang moliyaviy vaziyatlarga duchor bo'lishi mumkin. Natijada milliy eksport hajmining qisqarishi va tashqi savdo shartlarining yomonlashuvi xorijiy valyuta tushumlarining kamayishiga, tashqi savdo balansining beqarorlashuviga va eksportga ixtisoslashgan tarmoq va korxonalarining jiddiy moliyaviy qiyinchiliklarga uchrashiga sabab bo'lishi mumkin.

Shuningdek, mamlakatning umumiy eksporti yoki importida kam sonli davlatlar ulushining kattaligi, u mamlakat tashqi savdosining ana shu sanoqli mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'zgarishlarga bog'liqligiga olib keladi. Shu bois tashqi savdoga chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish bilan bir qatorda uning mamlakatlar geografiasini ham kengaytirish va xilma-xillashtirish jahon bozorida ko'zda tutilayotgan natijalarni qo'lg'a kiritishga, milliy xo'jalikning xalqaro bozordagi salbiy o'zarishlarga ta'sirchanligini pasaytirishga yoki bardoshlilikini oshirishga omil bo'ladi.

Milliy bozorda tashqi savdo tarkibini diversifikatsiya qilish va mamlakatlar geografiasini takomillashtirish maqsadida olib borilayotgan islohotlar o'zining samarali natijasini berishi tabiiy hisoblanadi. Respublikaning tashqi savdosi va eksporti hajmi, 2020 yildagi karantin va pandemiyani hisobga olmaganda keyingi yillarda muntazam ravishda barqaror sur'atlarda o'sib, izchil ravishda kengayib bormoqda. Xususan, milliy tashqi savdo aylanmasining hajmi 2022-yil yakunlariga ko'ra 50 milliard AQSh \$idan ortib ketdi. Bunday natijalarning yuzaga chiqishida asos bo'layotgan omillar qatoriga iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o'zgartirish va ishlab chiqarish tizimini diversifikatsiya qilish, yangi va lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilinishi, texnik va texnologik jihatdan yangilash dasturlarini amaliyotda keng joriy etish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirilishi va boshqa shu kabilarni kiritish mumkin.

Mamlakatlarning texnologik jihatdan chuqur qayta ishlangan va tayyor raqobatdosh tovarlar eksportini rivojlantirish va u mahsulotlar yetkazib berilayotgan mamlakatlar geografiasini izchil ravishda kengaytirish tashqi savdo va eksport hajmining barqaror rivojlantirishga, jahon bozoridagi salbiy o'zgarishlar ta'siridan va xavf-xatarlardan himoyalanihga sharoit yaratadi. Qolaversa, tashqi bozorlarga taklif qilinayotgan tovarlar tarkibini muntazam diversifikatsiyalash, ularni xarid qiluvchi davlatlar geografiasini kengaytirish, bu mamlakatlardan biri yoki bir nechtasining iqtisodiyotida sodir bo'layotgan muammolar natijasida ham eksport hajmining keskin kamayib ketishini oldini olish imkoniyati ta'minlanadi.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish borasidagi huquqiy asoslar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkoniyat yaratib beradi va pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'lishi uchun imkoniyat tug'uladi. Shu bois tashqi savdo hajmini kengaytirish va eksport tarkibini muntazam ravishda diversifikatsiya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosat yuritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tuxliyev N. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishida yangi trendlar. Monografiya.- T.: "Ilm-Ziyo-Zakovat", 2021. - 72 b.
2. Paul R. Krugman, Maurice Obstfeld, and Marc J. Melitz. International economics: theory & policy/12th Edition/USA. 2022.
3. Salvatore, Dominick. International economics. Printed in the USA /. - 13th ed. 2019. 720 p.
4. Sodiqov Z.R. Yangi iqtisodiy jarayonlar samaradorligi. Monografiya. - T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2020. - 126 b.
5. Sodikov Z.R. Globalasuv sharoitida tashqi savdoning rivojlanish tendensiyasi. Monografiya. T.: "Complex print", 2021. 84 b.
6. Sodiqov Z.R. Xalqaro iqtisodiy integratsiya. Darslik. - T.: "Complex print", 2020. 200 b.